BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PHD.03/2025.27.12.T.04.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

JORABEKOV TIMUR KEWNIMJAEVICH

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB QORAQALPOQ FONETIKASINI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH (sillabemik hodisalar misolida)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika)

PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Nukus – 2026

UDK: 378.091.3:811.512.121

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педогогическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Jorabekov Timur Kewnimjayevich
Raqamli texnologiyalardan foydalanib qoraqalpoq fonetikasini o‘qitish metodikasini takomillashtirish (sillabemik hodisalar misolida)…….. **3**

Жорабеков Тимур Кеунимжаевич
Совершенствование методики обучения каракалпакской фонетики на основе цифровых технологий (на примере силлабемических явлений)….. **23**

Jorabekov Timur Kewnimjaevich
Improvement of the methodology for teaching Karakalpak phonetics based on digital technologies (a case study of syllabemic phenomena)……. **45**

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works…… **49**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PHD.03/2025.27.12.T.04.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

JORABEKOV TIMUR KEWNIMJAEVICH

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB QORAQALPOQ FONETIKASINI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH (sillabemik hodisalar misolida)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika)

PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Nukus – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.PhD/Ped11996 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (резюме)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.karsu.uz) hamda «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Norov Abdisait Muradovich** texnika fanlari bo‘yicha PhD, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Mamarajabov Mirsalim Elmurzayevich** pedagogikafanlari doktori (DSc)., professor,
	Shinnazarova Soadat Jubatxanovna filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PHD.03/2025.27.12.T.04.02 raqamli Bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil “____” _____ kuni soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko‘chasi, 1-uy. Тел.: (99861) 223-60-78; e-mail: karsu_info@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ – raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko‘chasi, raqamsiz uy.) Tel.: (99861) 229-40-75; faks: (99861) 229-40-75..

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil “____” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

A.T.Ilyasov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

D.M.Jumabaev
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
t.f.f.d.(PhD), dotsent

M.E.Pazilova
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, p.f.d., (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda tilshunoslik muammolarini zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida ilmiy jihatdan hal etish maqsadida kompyuter lingvistikasining turli tarmoqlari, xususan, tabiiy tilni avtomatik qayta ishlash (NLP), inson-mashina muloqot tizimlari (Man-Machine Dialog System), mashinaviy tarjima (Machine Translation), tabiiy tilni mashinaviy o‘qitish (Machine Learning) va shu kabi turli xil lingvistik texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayni vaqtda kompyuter lingvistikasining zamonaviy yutuqlaridan fan va ishlab chiqarishning turli sohalari bilan bir vaqtda ta’limda ham samarali foydalanilmoqda. Bu yo‘nalish AQSH, Angliya, Germaniya, Rossiya, Fransiya, Shvetsiya, Avstraliya, Yaponiya, Koreya, Niderlandiya, Xitoy va boshqa mamlakatlarda jadal rivojlantirilmoqda, chunki kompyuter lingvistikasi va raqamli texnologiyalarning uyg‘unlikda rivojlanish tendensiyasini belgilab beruvchi asosiy vosita sifatida tabiiy tillarni nazariy-amaliy jihatdan tadqiq etish uchun zarur bo‘ladigan usullar, modellar va dasturiy vositalarni ishlab chiqish bu borada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda tabiiy tillarni avtomatik tushunish (NLU), qayta ishlash (NLP), generatsiya qilish (NLG) modellari va mashinaviy o‘qitish (ML) tizimlarini takomillashtirish, erishilgan ilmiy-amaliy natijalarni ta’lim tizimiga tatbiq etish va shunga o‘xshash global muammolarni hal etishga mo‘ljallangan ilmiy tadqiqot ishlari jadal olib borilmoqda. Shu nuqtayi nazardan tabiiy tillarning kompyuterli modellarini yaratish va bu modellar asosida, birinchi navbatda, fonetik hodisalarni kompyuterli modellashtirish, nutq sintezatorlarini yaratish, tabiiy til fonetikasini raqamli texnologiyalar yordamida o‘qitishni tashkil etish va shunga o‘xshash bir qator masalalarni ilmiy hal etish zarur bo‘lmoqda.

Respublikamizda ham o‘zbek va qoraqalpoq kompyuter lingvistikasini rivojlantirish, til muammolarini dasturiy vositalar yordamida hal etish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqdaki, bunga misol tariqasida o‘zbek va qoraqalpoq tilining turli obyektlarini matematik qonuniyatlar asosida formallashtirish, mantiqiy-matematik tipdagi modellarni yaratish, xususan, milliy korpus va morfologik-semantik bazalarni shakllantirish, tabiiy til interfeysini yaratish, tabiiy tildagi matnlarni morfologik, sintaktik va semantik jihatdan avtomatik tahlil qilish va tahrirlash, tabiiy tilni avtomatik aniqlash va generatsiya qilish, nutq sintezatorini yaratish, qoraqalpoq tili va boshqa tillar o‘rtasida mashinaviy tarjima modellarini ishlab chiqish va hokazolarni keltirish mumkin. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida “... Barcha yo‘nalishlarda innovatsion faoliyatni keng joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash, ... Yoshlar o‘rtasida IT sohasini yanada ommalashtirish hamda sohada xizmatlar eksportini oshirish, ... Raqamli texnologiyalarni rivojlantirgan holda mamlakatni mintaqaviy “ITHUB”ga aylantirish” bo‘yicha aniq maqsadlar belgilangan [1]. Ushbu vazifalarni

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

amalga oshirishda qoraqalpoq kompyuter lingvistikasini rivojlantirish, lingvo-matematik modellarni yaratish va ushbu modellar asosida interfaol dasturiy vositalarni ishlab chiqish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF–5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, shuningdek, 2024-yil 24-maydagi PF–81-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishning yangi bosqichiga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonlari hamda mazkur faoliyatlarga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahonda tabiiy tillar fonetikasining kompyuterli modellarini ishlab chiqish bo‘yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, R.Domenico, G.Fant, A.James, D.S. Jurafsky, S.E. Levinson, M.Orhun, C.Y. Lee, А.К. Баринова, А.Зубов, И.Кипяткова, Е.В. Марченко, М.Н. Куновски, Р.Г. Пиотровский, Н.С. Четверушкина, Л.Ю. Щипицина va boshqalar shular jumlasidandir. Shunindek, raqamli ta’limni yaratish hamda boshqarish masalalari bo‘yicha M.Decuypere, A.Lohr, J.Stommel, M.Milton, S.Morris, B.Williamson kabi olimlar shug‘ullanishgan. Raqamli ta’limni amaliyotga joriy etish masalalari bo‘yicha esa A.N.Dmitrievich, F.J.García-Peñalvo, C.McGuinness, L.Murillo-Zamorano, E.Pacheco kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Respublikamizda axborot texnologiyalarini o‘qitish metodikasi va kompyuter lingvistikasi bo‘yicha Г.Ж. Абылова, М.Х. Алламбергенова, A.K. Po‘latov, M.Aripov, M.M. Musayev, Sh.A. Nazirov, M.X. Xakimov, O‘.R. Hamdamov, F.M. Nuraliyev, E.Sh. Nazirova, N.S. Mamatov va boshqalar rahbarligida tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa, mamlakatimiz ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy va metodik asoslari, elektron ta’lim resurslarini yaratish hamda tatbiq etish bo‘yicha T.F. Bekmuratov, A.A. Abduqodirov, F.M. Zakirova, U.Sh. Begimqulov, S.S. G‘ulomov, M.X. Lutfillayev, S.Q. Tursunov, U.N. Taylakov, T.T. Shoymardonov, M.R. Fayziyeva va boshqalar tadqiqotlar olib borishgan. O‘zbek va qoraqalpoq tillari fonetikasi bo‘yicha M. Mirtojiyev, H. Jamolxonov, A. Dawletov, Sh.N. Abdinazimov, S.J. Shinnazarova, A.Q. Pirniyazova, M.K. Kaypnazarova, hamda boshqalarning ilmiy ishlari qiyosiy o‘rganib chiqildi.

Yuqorida qayd etilgan ilmiy ishlar turkiy tillarga oid kompyuter lingvistikasi va raqamli texnologilar tadqiqoti uchun bugungi kunda tayanch material sifatida xizmat qilayotgan bo‘lsa-da, biroq hozirgacha turkiy tillar, aynisa, qoraqalpoq tili fonetikasining kompyuterli modellari, algoritmlari, interfaol dasturiy vositalarini yaratish va ta’lim tizimiga tatbiq etish muammolari yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpoq davlat universitetining “Orol dengizining qurigan tubida uchraydigan muammolarning ilmiy yechimiga qaratilgan amaliy tadqiqot va innovatsion loyihalar tanlovi” mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qoraqalpoq tili fonetikasini o‘qitishda raqamli texnlogiyalardan foydalanish metodikasini ishlab chiqish va oliy ta’lim tizimiga tatbiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qoraqalpoq tilidagi so‘zlarning fonetik xossalariga ko‘ra prosodik elementlar va sillabik hodisalarning lingvistik modellarini yaratish;

o‘zbek tiliga oid Sillabema modelidan foydalangan holda qoraqalpoq tilidagi polisillabik so‘zlar uchun avtomatik bo‘g‘in ajratish metodlari va algoritmlarini ishlab chiqish;

qoraqalpoq tilining fonetik qoidalariga binoan sillabemik hodisalar uchun interfaol dasturiy vositalar yaratish hamda raqamli texnologiyalar asosida ta’lim tizimiga tatbiq etish metodlarini takomillashtirish;

raqamli texnologiyalardan foydalanib qoraqalpoq tili fonetikasini o‘qitish orqali talabalarning lisoniy savodxonligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti talabalarga qoraqalpoq tili fonetikasini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti talabalarga qoraqalpoq tili fonetikasini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish mazmuni, shakli, metodlari va vositalaridir.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda kuzatish, so‘rovnoma, matematik statistika va kompyuter lingvistikasi metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qoraqalpoq tilidagi so‘zlarning fonetik xususiyatlari tizimli ravishda tadqiq etilib, ularning prosodik elementlari hamda sillabik hodisalarini aks ettiruvchi lingvistik modellar ishlab chiqilgan, xususan, bo‘g‘in tuzilishi, urg‘u va ohang kabi prosodik birliklarning o‘zaro munosabati fonetik va fonologik jihatdan tahlil qilinib, ularning konseptual modeli ilmiy asosda taklif etilgan;

qoraqalpoq tilining fonetik qonuniyatlari va fonotaktik xususiyatlarini inobatga olgan holda o‘zbek tilshunosligida ishlab chiqilgan sillabema modeli asosida qoraqalpoq tilidagi polisillabik so‘zlar uchun avtomatik bo‘g‘in ajratish metodlari va algoritmlari modifikatsiya qilingan hamda amaliy tatbiq etish imkoniyatlari kengaytirilgan;

qoraqalpoq tilining fonetik qoidalariga muvofiq sillabemik hodisalarni modellashtiruvchi interaktiv dasturiy vosita yaratilgan, mazkur dasturiy vositani ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha ilmiy-metodik asoslar ishlab chiqilgan,

fonetik bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi raqamli muhit yaratilgan;

oliy ta’lim muassasalari talabalarining lisoniy savodxonligini oshirishga, fonetik kompetensiyasi va nutqiy malakalarini rivojlantirishga, qoraqalpoq tili fanini o‘qitish sifatini ta’minlashga xizmat qiladigan raqamli texnologiyalardan ilmiy-amaliy foydalanish orqali qoraqalpoq tili fonetikasini o‘qitish jarayoni takomillashtirilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qoraqalpoq tilidagi tovush tuzilishining fonematik, sintagmatik va sillabik xossalariga asosan monosillabik va polisillabik so‘zlar tuzilmasi yaxlit ko‘rinishga keltirilgan, ularni bo‘g‘inga ajratishning lingvistik va lingvo-matematik modellari asosida algoritmlar hamda “Syllables.uz” nomli interaktiv web-ilova yaratilgan;

“Syllables.uz” interaktiv web-ilovadan foydalanib, 63730400 – “Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji (turlari bo‘yicha)”, 60730300 – “Qurilish (bino va inshootlar)” ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun “Qurilishda axborot texnologiyalari” nomli o‘quv qo‘llanma tayyorlangan va o‘quv jarayoniga joriy etilgan;

qoraqalpoq tili fonetikasini kasbiy faoliyatga yo‘naltirib o‘qitish mazmunini takomillashtirishga xizmat qiladigan “Sillabema platformasi” nomli elektron dastur yaratilgan (DGU 19810);

talabalarning lisoniy savodxonligini oshirish maqsadida zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanib, qoraqalpoq tili fonetikasini oliy ta’lim tizimida o‘qitish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘yilgan muammolar yuzasidan ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, respublikamiz va xorijiy olimlar tomonidan tavsiya etilgan tadqiqot metodlarining to‘g‘ri qo‘llanilganligi, tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor va sifat jihatidan ta’minlanganligi, bajarilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qoraqalpoq fonetik alifbosining kompyuterga yo‘naltirilgan modeli va qoraqalpoq tilidagi so‘zlarni avtomatik bo‘g‘inlarga ajratishga oid lingvistik modellar yaratilganligi, ushbu modellarni raqamli texnologiyalar asosida oliy ta’lim tizimiga qo‘llashning takomillashtirilgan metodlari ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati matn muharrirlari orqali qoraqalpoq tilidagi so‘zlarni fonetik tahlil qilishda, til fonetikasiga oid interfaol dasturlar yaratishda, ilmiy tadqiqot materiallarini tayyorlashda, nutqni avtomatik qayta ishlashda, talaffuz bo‘yicha imkoniyati cheklangan insonlar

uchun amaliy dasturlar yaratishda muhim vosita sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qoraqalpoq fonetikasini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishga oid ilmiy jihatdan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida:

qoraqalpoq tili fonetikasini kasbiy faoliyatga yo‘naltirib o‘qitish mazmunini takomillashtirishga xizmat qiladigan “Sillabema platformasi” nomli elektron dastur “Qurilishda axborot texnologiyalari” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 17-iyuldagi 314-son buyrug‘i asosidagi №413668503576465188 raqamli nashr guvohnomasi). Natijada qoraqalpoq tili fonetik qoidalariga binoan sillabemik hodisalar uchun interfaol dasturiy vositalar yaratish bo‘yicha talabalarning amaliy bilim, ko‘nikma va malakasini oshirish imkoniyati kengaytirilgan;

qoraqalpoq tili fonetikasini raqamli interaktiv dasturiy vositalar yordamida o‘qitish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladigan “Sillabema platformasi web interfeysi” nomli elektron dastur “Qurilishda axborot texnologiyalari” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 17-iyuldagi 314-son buyrug‘i asosidagi №413668503576465188 raqamli nashr guvohnomasi). Natijada qoraqalpoq tili fonetik qoidalariga binoan sillabemik hodisalar uchun interfaol dasturiy vositalar yaratish samaradorligi oshirilgan;

qoraqalpoq tilining fonetik qoidalariga binoan sillabemik hodisalar uchun interaktiv dasturiy vositalar yaratish va raqamli texnologiyalar asosida ta’lim tizimiga tatbiq etish metodlarini takomillashtirishga oid taklif hamda tavsiyalar “Qurilishda axborot texnologiyalari” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 17-iyuldagi 314-son buyrug‘i asosidagi №413668503576465188 raqamli nashr guvohnomasi). Natijada fanlarni o‘qitishda pedagogik dasturiy vositalardan foydalanishning metodik va didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirishga erishilgan;

qoraqalpoq tilidagi nutq tovushlarining fonetik hamda sillabik xossalariga asosan monosillabik va polisillabik so‘zlar aniq tizimga keltirilib, ularni bo‘g‘inga ajratishning lingvistik va lingvo-matematik modellari asosida “Syllables.uz” nomli interaktiv web-ilovani yaratishga oid takliflar “Qurilishda axborot texnologiyalari” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 17-iyuldagi 314-son buyrug‘i asosidagi №413668503576465188 raqamli nashr guvohnomasi). Natijada talabalarning lisoniy savodxonligini oshirish orqali qoraqalpoq tili fonetikasini o‘qitish samaradorligi ko‘tarilgan;

polisillabik so‘zlarni bo‘g‘inlarga avtomatik ajratishning lingvistik va lingvo-matematik modellari asosida yaratilgan “Syllables.uz” nomli interaktiv dastur va tadqiqot natijasida olingan taklif-tavsiyalar Navoiy davlat universiteti, Qoraqalpoq davlat universiteti hamda Qarshi davlat universitetlarida joriy etilgan (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universitetining

2025-yil 27-noyabrdagi 11-05-6668/04-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada qoraqalpoq fonetikasini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish orqali talabalarning lisoniy savodxonligini oshirish samaradorligi umumiy holda 13% ga ko‘tarilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy nazariy va amaliy natijalari 2 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya bo‘yicha jami 24 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 18 ta maqola, 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan hamda 2 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalarni qayd qilish guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 138 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari tavsiflangan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot natijalarini joriy qilish holati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Raqamli texnologiyalardan foydalanib qoraqalpoq tili fonetikasini o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida qoraqalpoq tili fonetikasining o‘ziga xos xususiyatlari va uning lingvistik tadqiqi, raqamli texnologiyalarni tabiiy til fonetikasini o‘qitishda qo‘llash imkoniyatlari, qoraqalpoq tili fonetikasini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitishning tashkiliy-uslubiy tamoyillari va individual-psixologik xususiyatlari, shuningdek, fonetikani o‘qitishda hal etilishi lozim bo‘lgan nazariy va amaliy masalalar bayon etilgan. Qoraqalpoq tili va zamonaviy raqamli texnologiyalarning integratsiyasi doirasida qoraqalpoq lingvistikasi masalalarini raqamli texnologiyalar vositasida hal etish bilan bog‘liq masalalar o‘rganilib, tabiiy tillarga oid lingvistik modellar, ularning asosiy turlari va tasniflari keltirilgan.

Shu bilan birga ushbu bobda kompyuter lingvistikasining dunyo miqyosidagi zamonaviy tadqiqot yo‘nalishlari, o‘zbek va qoraqalpoq kompyuter lingvistikasiga oid ilmiy tadqiqotlar, ularning hozirgi holati, qoraqalpoq kompyuter lingvistikasida hal etilishi lozim bo‘lgan masalalar to‘g‘risida ilmiy manbalarga tayangan fikr-mulohazalar keltirilgan.

Qoraqalpoq tili fonetikasini raqamli asosda o‘qitishdagi ilmiy-nazariy jihatlar ko‘pgina omillarga bog‘liq bo‘lib, ulardan biri fonema va bo‘g‘in nazariyasini chuqur o‘rganishni talab etadi. Buning uchun, avvalo fonema va uning allofonla-

rini ajratish hamda minimal juftliklar orqali ko‘rsatish kerak bo‘lsa, ikkinchidan, qoraqalpoq tili fonologik qonunlarini nazariy asosda izohlash, uchinchidan esa bo‘g‘in, urg‘u va intonatsiya nazariyasini o‘quv dasturlariga integratsiya qilish lozim bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, raqamli texnologiyalar yordamida samarali o‘qitish, raqamli resurslar yaratish, interaktiv ilovalar ishlab chiqish va adaptiv o‘qitish usullarini joriy etish qoraqalpoq fonetikasini raqamli o‘qitishdagi amaliy masalalardan biridir.

Bo‘g‘in nutqning eng kichik ritmik prosodik birligi bo‘lib, talaffuz jarayonida tovushlarning tabiiy birikishi natijasida hosil bo‘ladi. Bo‘g‘in yadrosi har doim unli tovush bo‘ladi, chunki unli eng ochiq va jarangdor tovushdir. Undoshlar esa unli atrofida yig‘ilib, bo‘g‘inni tashkil qiladi.

Qoraqalpoq tili fonetikasini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitishda adaptiv o‘qitish modelini ishlab chiqish zarurdir, ya’ni talabalarning individual-psixologik xususiyatlariga mos mashqlar taqdim qilish hamda motivatsiyasini oshirish uchun geymifikatsiya tizimini ishlab chiqish kerak bo‘ladi, chunki bunda talabalarning psixologik xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi (1-jadval).

1-jadval


Qoraqalpoq fonetikasini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitishda talabalarning psixologik xususiyatlari va ahamiyati

Psixologik xususiyati	**Ahamiyati**	**Raqamli texnologiyalarda qo‘llanilishi**
Idrok tezligi va aniqligi	Tovush farqini sezish qobiliyati, fonemalarni to‘g‘ri ajratish	Interaktiv audio-topshiriqlar, fonema to‘liqligini avtomatik tekshiruvchi dasturlar.
Eshitish xotirasi	Fonetik namuna va intonatsiyani eslab qolish	Takroriy eshitish mashqlari, avtomatik tinglash va tekshirish platformalari.
Kognitiv uslub	Vizual, audio yoki kinestetik ustunlik.	Audio-video animatsiyalar, artikulatsiya 3D modellari.
Motivatsiya	O‘quv jarayonidagi qiziqish va intilish	Geymifikatsiya, baholash va rag‘batlantirish tizimlari.
Ijodiy qobiliyat	Yangi nutq shakllarini yaratish qobiliyati.	Intonatsiya simulyatorlari, o‘z ovozini yozib tahlil qilish.
Psixologik yetuklik	O‘rganish strategiyasini tanlash.	Boshlang‘ich, o‘rta va yuqori darajalari modullar.

Qoraqalpoq fonetikasini raqamli texnologiya asosida individual yondashuv bilan o‘qitishning metodik modeli 5 bosqichdan iborat bo‘lib, har bir bosqich o‘ziga xos funksional vazifalarni bajaradi (1-rasm).

Qoraqalpoq fonetikasini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitishda tashkiliy-uslubiy jihatdan dars tizimli, interaktiv va adaptiv bo‘lishi, individual-psixologik jihatdan esa talabaning idrok, xotira, motivatsiya, yoshi hisobga olinishi shart.

Bu usul bilan fonetik kompetensiyani shakllantirish tezlashadi, motivatsiya ortadi va nutqning fonetik aniqligi yuqori darajaga chiqadi.



1-rasm. Fonetikasini raqamli texnologiya asosida individual yondashuv bilan o'qitishning metodik modeli

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Raqamli texnologiyalar asosida fonetikani o'qitish tamoyillarini ishlab chiqish va oliy ta'lim tizimiga tatbiq etish metodikasi**" deb nomlangan bo'lib, unda raqamli ta'lim asosini tashkil etuvchi zamonaviy dasturiy vositalar tahlili, raqamli texnologiyalar asosida qoraqalpoq tili fonetikasini o'qitishga oid interfaol dasturiy vositalarni ishlab chiqish tamoyillari, raqamli texnologiyalardan foydalanib qoraqalpoq lingvistikasiga oid darslarni tashkil etish metodikasi to'g'risida fikr yuritilgan.

Qoraqalpoq tilining fonetik elementlaridan biri sanalgan bo'g'in hodisasini qaraymiz, bunda tadqiqot obyekti sifatida qoraqalpoq tilining o'z leksikasi hamda sharq tillaridan o'zlashgan leksikasini asos qilib olamiz.

Qoraqalpoq tilshunosligida bo'g'in ajratishning o'ziga xos qoidalari mavjud. Bu qoidalarni saralab, bir tartibga keltirgan holda umumlashtirib olsak, natijada har biri takrorlanmaydigan va bir-birini to'ldirib turadigan qoidalar majmuyi yuzaga keladi. O'z navbatida bu qoidalar majmuyini yaxlit holda lingvistik model deb qarash mumkin. So'zlarni bo'g'inlarga ajratishga oid lingvistik model quyidagi qoidalardan tarkib topgan (2-jadval).

2-jadval

Bo'g'in ajratishga oid lingvistik model

1.	So'zda nechta unli tovush bo'lsa, u shuncha bo'g'inli bo'ladi.
2.	Bo'g'in ikki qo'shni unli orasidan o'tadi.
3.	Ikkinchisidan boshlab, har bir keyingi bo'g'in boshida faqat bir undosh mavjud bo'ladi.
4.	Bo'g'in oxiri hech qachon ikki undoshdan ortiq holda uchramaydi.
5.	Bo'g'in intervokal undoshdan boshlab qayd etiladi.
6.	Bo'g'in ikki unli o'rtasida kelgan ikki undosh o'rtasidan ajraladi.

Barcha turkiy tillar uchun umumiy bo‘lgan lingvistik modelga xos lingvo-matematik model esa quyidagi ko‘rinishda beriladi:

$$b_{i+1} = \left\lceil \frac{\sigma_i}{2} \right\rceil + H(\ln(\frac{2\delta_i}{7})) \cdot \frac{(-1)^{\delta_i} + 2\delta_i - 5}{4} \quad (1)$$

Raqamli texnologiyalar asosida qoraqalpoq tili fonetikasini o‘qitishning pedagogik-psixologik asoslari, talabalar tomonidan lisoniy savodxonlikni oshirish samaradorligini ta’minlashning metodik ta’minoti va modelini ishlab chiqish bo‘yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Ya’ni ushbu nuqtayi nazarga ko‘ra, dars mashg‘ulotlari jarayonida assesment, blits-so‘rov, taqdimot va Venn diagrammasi kabi ta’lim metodlarini qo‘llash orqali raqamli texnologiyalar asosida qoraqalpoq tili fonetikasini o‘qitishning sxematik modeli taklif etildi (2-rasm).

Modelda keltirilgan har bir ta’lim turining o‘quv metodik ta’minoti hamda interaktiv bilimni baholash materiallari talabalarning o‘quv jarayonida bilimga bo‘lgan talab va istaklarini to‘la qondirish uchun xizmat qiladi. Ushbu sxematik modelni ta’limning an’anaviy, masofaviy va mobil turlari uchun ham alohida-alohida ishlab chiqish mumkin.

Mazkur modelni qo‘llash asosida kutiladigan natijalar quyidagilardan iborat bo‘ladi:

1. Zamonaviy raqamli muhitda interaktiv dasturiy texnologiyalar yordamida qoraqalpoq tili fonetikasi samarali o‘qitiladi.

2. Talabalarning lisoniy savodxonligi oshadi, fonetik kompetensiyasi tezroq shakllanadi.

3. Talaffuzdagi xatolar avtomatik ravishda aniqlanib, individual tavsiyalar beriladi.

4. Fonetikani o‘qitish jarayonida multimodal (audio-video-vizual) vositalar qo‘llaniladi.

Tabiiy til fonetikasini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasini takomillashtiruvchi interaktiv dasturiy vositalarni ishlab chiqishdagi tamoyillar quyidagi asosiy yo‘nalishlarni qamrab oladi:

1. Lingvistik asoslanganlik, didaktik moslashuv hamda metodik uyg‘unlik asosidagi ilmiy-pedagogik tamoyillar.


2. Multimedia integratsiyasi, interaktivlik, mobil va web-platformada ishlash, avtomatik fidbek kabi axborot-texnologik tamoyillar.

3. Tinglab idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish, motivatsiya, geymifikatsiya, individual trayektoriya kabi psixolingvistik tamoyillar.

4. Intuitiv interfeys, qo‘llash imkoniyatlari va masshtablanuvchanlik kabilarni aks ettiruvchi texnik tamoyillar.

5. Diagnostik testlar, talaffuz progressini kuzatish, foydalanuvchi statistikasi kabilardan tarkib topgan ta’lim natijalarini baholash tamoyillari.

Ta’lim samaradorligi, avvalo, psixologik natijalar, nazorat qilinadigan o‘quv va bilim faoliyati jarayonida shakllanadigan ruhiy o‘zgarishlar va yangi shakllanishlar bilan baholanadi. Chunki ta’lim jarayoni deganda, shaxsning birgina bilim olish jarayoni emas, balki uning shaxsiy, ijtimoiy hamda psixologik rivojlanish jarayonlari ham tushuniladi.



2-rasm. Raqamli texnologiyalar asosida qoraqalpoq tili fonetikasini o‘qitishning sxematik modeli

Raqamli texnologiyalar asosida tayyorlangan o‘quv modelida o‘qituvchi roli aktiv holatdan passiv ko‘rinishga o‘tkaziladi va talaba uchun bu holat aksincha bo‘ladi. Bunga asosiy sabab uch turdagi: an’anaviy, mobil va masofaviy ta’limning o‘quv-metodik ta’minoti hisoblanadi.

Interaktiv dasturiy vositalar orqali tabiiy til fonetikasini o‘qitish, o‘z navbatida, fonema va grafema munosabatini tushuntirish, urg‘u, intonatsiya va ritmni o‘rgatish, fonetik tahlil ko‘nikmasini shakllantirish, yozuv va talaffuz o‘rtasidagi tafovutni ko‘rsatish, adabiy normaga muvofiq talaffuzga o‘rgatish kabi bir qator metodik vazifalarni ham amalga oshiradi. Shunday qilib, qoraqalpoq fonetikasida ulardan samarali foydalanish talabalarda nafaqat fonetik kompetensiyani mustahkamlaydi, balki to‘g‘ri talaffuz va orfoepik me’yorlarga amal qilish ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

Dissertatsiyaning uchunchi bobi “**Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish va uning natijalari**” deb nomlangan bo‘lib, unda pedagogik tajriba-sinov maqsadi, vazifalari va bosqichlari hamda pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari va ularning statistik tahlili keltirilgan. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini olib borish uchun Qarshi davlat universiteti, Qoraqalpoq davlat universiteti va Navoiy davlat universiteti tanlab olindi, bunda tajriba guruhlariga 41 nafar, nazorat guruhlariga esa 40 nafar, jami 81 nafar talaba jalb etildi. Tajriba-sinov ishlarini boshlashdan avval quyidagi vazifalar belgilab olindi:

• oliy ta’lim muassasasida tajriba-sinov ishida qatnashuvchi talabalarni tanlab olish va ularni tajriba hamda nazorat guruhlariga ajratish;

• tajriba guruhida raqamli texnologiyalardan foydalanib, “Syllables.uz” web-ilovasini qo‘llash orqali mashg‘ulot olib borish, nazorat guruhida esa mashg‘ulotlarni an’anaviy usulda tashkil etish;

• har ikkala guruh talabalarini yakuniy baholash, bu baholarni raqamli texnologiya asosida bazaga to‘rlash, tartiblash, matematik statistika usullaridan foydalanib qiyosiy tahlil qilish va xulosa yasash.

Tadqiqot ishi bo‘yicha pedagogik tajriba-sinov ishlari quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

Birinchi (asoslovchi) bosqich. Oliy ta’lim muassasalarining o‘quv rejasidagi majburiy fanlar tarkibiga kiruvchi “Kompyuter lingvistikasi” fanining DTSga mos o‘quv reja soatlari va o‘quv dasturiga mos darslarning shakllari, o‘quv soatlarning mashg‘ulot shakli bo‘yicha taqsimoti, mavjud darslik, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar mazmuni, dars jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish holatlari o‘rganib chiqildi va an’anaviy o‘qitish metodikasi bilan tanishgan holda samaradorlik ko‘rsatkichi tahlil qilindi.

Darslarni kuzatish jarayonida fan o‘qituvchilari va talabalardan turli anketa-so‘rovlar o‘tkazish asosida ta’lim samaradorligini oshirish uchun zamonaviy axborot resurslarini yaratish, raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron ta’lim darsliklarini yaratish va ularni o‘quv jarayoniga tatbiq qilish zarurligi aniqlandi. Kuzatishlar, o‘rganishlar va tahlillar asosida tadqiqotning maqsadi, obyekti, predmeti, ilmiy farazi va vazifalariga aniqlik kiritildi.

Ikkinchi (tatbiqiy) bosqich. Pedagogik tajriba-sinov ishlarining tashkiliy tayyorgarlik hamda amaliy tatbiq bosqichi bo‘yicha tajriba-sinov hududi sifatida

Qoraqalpoq davlat universiteti, Navoiy davlat universiteti hamda Qarshi davlat universiteti tanlab olindi. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish maqsadida respondent-talabalar tanlab olinib, “Kompyuter lingvistikasi” fani bo‘yicha guruhlarning dars tahlili, raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha malaka va ko‘nikmalari o‘rganildi.

Respondent talabalarning “Kompyuter lingvistikasi” fani bo‘yicha o‘zlashtirish darajasini aniqlash jarayoni test shaklida amalga oshirildi va tanlab olingan pedagogik tajriba-sinov obyektlarida darslarni tashkil etish va o‘tkazishda mavjud darslik, o‘quv qo‘llanmalar hamda didaktik vositalar bilan bir qatorda mashg‘ulot jarayonida web-ilova yordamida blend-learning ta’lim usulidan foydalanib o‘qitish asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilab olindi.

Fanni o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish holati o‘rganildi, fan o‘qituvchilari bilan suhbat o‘tkazilib, ular bilan bu borada fikr-mulohazalar almashildi. Talabalarning dars jarayonida raqamli texnologiyalardan samarali va unumli foydalana olish ko‘nikmalari va malakalari darajasini aniqlash maqsadida anketa-so‘rovlar o‘tkazildi, suhbatlar tashkil etildi. Bu anketa-so‘rovnomalar orqali olingan javoblarga ko‘ra tajriba-sinov guruhida ishtirok etganlarning 86,7 foizi raqamli texnologiyalarga asoslangan zamonaviy ta’limni, 13,3 foizi esa mahoratli pedagoglar yordamida an’anaviy ta’limni amalga oshirish dars samaradorligi bo‘yicha ko‘zlangan maqsadga erishishning maqbul yechimi ekanligini bildirishgan.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi oliy ta’lim muassasalarida “Kompyuter lingvistikasi” fanini raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan web-ilova yordamida blend-learning o‘qitish metodikasini ishlab chiqish va tatbiq etish orqali dars samaradorligiga erishishga qaratildi.

Uchinchi (natijaviy) bosqich. Bu davrda “Kompyuter lingvistikasi” fanidan mavzularni o‘rgatishda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha o‘quv adabiyotlar mazmuni va dars ishlanmalari shakllantirildi, fanni o‘qitishning didaktik vositalari va ulardan foydalanish metodikasi ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etib borildi. Shuningdek, talabalarning o‘zlashtirish samaradorligini oshirish uchun ularning hozirgacha mavjud bo‘lgan o‘zlashtirish ko‘rsatkichi mavzular kesimida sinovdan o‘tkazilib, interaktiv tarzda nazorat qilib borildi.

Tajriba-sinov guruhlari uchun tayyorlangan amaliy ish va mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarib borish jarayonida talabalarning tizim bilan ishlash malakasining oshishi, fanga bo‘lgan qiziqishining kuchayishi va ularda mustaqil fikrlashning rivojlanib borishi kabi holatlarga e’tibor qaratildi.

Shuningdek, “Kompyuter lingvistikasi” fanidan mustaqil ishlarni bajarishlari uchun web-texnologiyalardan foydalanish metodikasi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi.

“Kompyuter lingvistikasi” fanidan uslubiy qo‘llanma, ma’ruza matnlari va amaliy mashg‘ulotlar uchun topshiriqlar to‘plami, dars ishlanmalari, mustaqil ish topshiriqlari tayyorlandi va chop etildi.

Talabalarning “Kompyuter lingvistikasi” bo‘yicha bilimlari nisbatan qoniqarli ko‘rsatkichni bergan bo‘lsa-da, biroq ularning raqamli texnologiyalar va interaktiv dasturiy vositalardan samarali foydalanish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini

rivojlantirish va kelajakda o‘z kasbiy faoliyatlarida foydalana olish malakalarini bosqichma-bosqich oshirish dolzarb vazifalardan ekanligini ko‘rsatdi.

Tajriba-sinov ishlarining so‘nggi o‘quv yilidagi pedagogik tajriba ishining samaradorligi, talabalarning o‘quv jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish, interaktiv dasturiy vositalar bilan ishlash bo‘yicha nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakaga ega bo‘lganlik darajasi tajriba-sinov ishlari tashkil etilgunga qadar va tashkil etilgandan keyingi holatlar bo‘yicha aniqlandi (3-jadval), natijalar 5 ballik tizim asosida tahlil qilindi.

3-jadval

Tajriba-sinov ishlaridan oldingi va keyingi test natijalari (Moodle muhitida olingan test ballariga nisbatan)

OTM	Nazorat guruhi		Tajriba guruhi	
	Dastlabki	Keyingi	Dastlabki	Keyingi
Qoraqalpoq DU	68%	69%	68%	79%
Navoiy DU	64%	67%	64%	77%
Qarshi DU	64%	66%	64%	79%

Jadvalda keltirilgan oliy ta’lim muassasalarida turli ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklar tanlangan bo‘lib, ulardagi tajriba guruhi talabalari bilan raqamli texnologiyalar asosida (“Syllables.uz” web-ilovasi taqdim etilgan holda) va nazorat guruhi talabalari bilan an’anaviy shaklda mashg‘ulotlar olib borildi. 3-jadvalda keltirilgan natijalar bo‘yicha ma’lumotlar diagrammasi 3-rasmda tasvirlangan.

Tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichida tajriba va nazorat guruhlaridagi talabalarning bilim darajasi test yordamida aniqlandi (4-jadval).

4-jadval

Tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichida respondent talabalarning bilim darajasi bo‘yicha natijalar

Guruh	Talabalar soni	A’lo (5 baho)	Yaxshi (4 baho)	Qoniqarli (3 baho)	Qoniqarsiz (2 baho)
Tajriba	41 nafar	16 nafar	13 nafar	9 nafar	3 nafar
Nazorat	40 nafar	9 nafar	10 nafar	15 nafar	6 nafar
Jami:	**81 nafar**	**25 nafar**	**23 nafar**	**24 nafar**	**9 nafar**

Tadqiqotimiz davomida ishlab chiqilgan “Kompyuter lingvistikasi” fanini raqamli texnologiya asosida o‘qitish metodikasi bo‘yicha olingan natijalarni o‘quv jarayoniga tatbiq qilishda talabalarning fandan berilgan vazifalarni bajarishi va o‘zlashtirish darajasi bo‘yicha samaradorlik mezonining ko‘rsatkichlari sifatida quyidagilardan foydalanildi:

